

---

Qo'shtepa tumanidagi "Xumdon" mahallasida "Xumdon shifo" oilaviy korxonasi qurilish davolash maskani o'z faoliyatini boshladi

Bugungi kunda aholi salomatligini ta'minlash, buning uchun esa barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish, odamlarni o'z hayotlaridan rozi qilish - asosiy maqsadiga aylangan. Zero, ularning manfaatlarini himoya qilish oliy vazifadir.

Shu maqsadlar yo'lida "Xumdon" mahallasidagi "Xumdon shifo" oilaviy korxonasi qurilish davolash maskani o'z faoliyatini boshladi.

Maskanning ochilish marosimida tuman sektor rahbarlari, hokim o'rinbosarlari, mahalla ahli va keng jamoatchilik ishtirok etdi.

Tadbirda so'z olgan tuman hokimi Anvarjon Abdullayev davlatimiz tomonidan yaratib berilgan qator imtiyozlarga to'xtalib o'tdi. Hudud ahlini yangi va zamonaviy muassasa bilan qutlab, loyiha tashabbuskorlarining kelgusi ishlarida zafarlar tiladi.

Tadbirkor Oxunjon Abdurasulovning tashabbusi bilan mahalla ahlining talab va istaklaridan kelib chiqib qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi, shuningdek zamoniy tibbiy uskunalar, jihozlar keltirilib, yangi 12 ta ish o'rni yaratildi.

Maskanda bemorlar, qolaversa tibbiyot xodimlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Malakali shifokorlar tomonidan aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatiladi. Bu esa bemorlarga o'z vaqtida malakali tibbiy xizmat ko'rsatish imkonini beradi.

Shu kuni mehmonlar tibbiyot muassasasida yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar.



















2024-09-24 17:54:38